

1917-YIL FEVRAL INQILOBI VA UNING TURKISTONGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar: **Rahimjonov Mirzohid**
Badriddinov Biloliddin Baxodir o'g'li
Oriental universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20553733>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-yil Rossiya imperiyasida sodir bo'lgan Fevral inqilobi natijasida podsho hokimiyatining ag'darilishi, mamlakatda siyosiy boshqaruvning Muvaqqat hukumat qo'lga o'tishi hamda bu jarayonlarning Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Fevral inqilobidan so'ng imperiya hududlarida, jumladan Turkistonda ham siyosiy faollik kuchaydi, mahalliy aholining huquqiy-siyosiy ongida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Shuningdek, maqolada Fevral inqilobidan keyingi davrda Turkistonda milliy davlatchilik g'oyalarining kuchayishi, mahalliy ziyolilar tomonidan o'lkaning siyosiy taqdirini mustaqil belgilashga intilish jarayonlari ochib berilgan. Aynan shu tarixiy sharoitda Turkiston muxtoriyati g'oyasi siyosiy maydonga chiqdi. Bu g'oya mahalliy aholining o'z taqdirini o'zi belgilash, boshqaruvda ishtirok etish, ijtimoiy adolat va milliy tenglikka erishish istaklari bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bois Fevral inqilobi Turkiston tarixida nafaqat Rossiya imperiyasi siyosiy tuzumining yemirilishi bilan bog'liq hodisa, balki milliy uyg'onish, siyosiy faollik va muxtoriyat uchun kurashning yangi bosqichini boshlab bergan muhim tarixiy burilish sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Fevral inqilobi, ikki muxtoriyat davri, Muvaqqat hukumat Turkiston komiteti, milliy uyg'onish harakati, Sho'roi Islomiya, Sho'roi Ulamo.

Abstract. This article examines the overthrow of the tsarist regime as a result of the February Revolution that took place in the Russian Empire in 1917, the transfer of political power to the Provisional Government, and the impact of these processes on the socio-political life of the Turkestan region. After the February Revolution, political activity intensified across the territories of the former empire, including Turkestan, and significant changes occurred in the legal and political consciousness of the local population. The article also reveals the strengthening of ideas of national statehood in Turkestan during the post-February Revolution period, as well as the efforts of local intellectuals to determine the political future of the region independently. It was precisely under these historical conditions that the idea of Turkestan autonomy emerged on the political stage. This idea was closely connected with the aspirations of the local population for self-determination, participation in governance, social justice, and national equality. Therefore, the February Revolution is assessed in the history of Turkestan not only as an event associated with the collapse of the political system of the Russian Empire, but also as an important historical turning point that marked the beginning of a new stage of national awakening, political activism, and the struggle for autonomy.

Keywords: February Revolution, period of dual power, Turkestan Committee of the Provisional Government, national awakening movement, Shuro-i Islomiya, Shuro-i Ulamo.

Аннотация. В данной статье освещается свержение царской власти в результате Февральской революции, произошедшей в Российской империи в 1917 году, переход политического управления в руки Временного правительства, а также влияние этих

процессов на общественно-политическую жизнь Туркестанского края. После Февральской революции на территориях бывшей империи, в том числе в Туркестане, усилилась политическая активность, произошли заметные изменения в правовом и политическом сознании местного населения. Кроме того, в статье раскрываются процессы усиления идей национальной государственности в Туркестане в период после Февральской революции, а также стремление местной интеллигенции самостоятельно определить политическую судьбу края. Именно в этих исторических условиях идея Туркестанской автономии вышла на политическую арену. Данная идея была тесно связана со стремлениями местного населения к самоопределению, участию в управлении, достижению социальной справедливости и национального равноправия. Таким образом, Февральская революция в истории Туркестана оценивается не только как событие, связанное с крушением политической системы Российской империи, но и как важный исторический перелом, положивший начало новому этапу национального пробуждения, политической активности и борьбы за автономию.

Ключевые слова: *Февральская революция, период двоевластия, Туркестанский комитет Временного правительства, национальное пробуждение, Шууро-и Исламия, Шууро-и Уламо.*

Kirish

1917-yil 23-27 fevral kunlari Petrogradta inqilob yuz berdi. Ushbu inqilob Rossiya imperiyasini 23 yil davomida boshqargan Nikolay II ning taxtdan voz kechishi bilan yakunlandi.

Hokimiyat Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi. Rossiyada boshlanga inqilobiy jarayonlarning ma'lum tarixiy ildizlari mavjud edi. Bunga birinchidan, Rossiyada podsho hokimiyatiga qarshi uzoq vatqdan beri shakllanib kelayotgan siyosiy norozilik to'liqlari bo'lsa, ikkinchisi esa Birinchi jahon urushi natijasidagi Rossiyadagi og'ir iqtisodiy inqiroz edi. Shuningdek, Rossiyada podsho hokimiyatining ag'darilishi bilan Turkistonda yarim asr hukm surgan podsho mustabid tuzumi ham quladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rossiyada 27-fevral qo'sh hokimiyat vujudga keldi. Birinchisi: Davlat dumasi vaqtincha qo'mitasi. Bunda vaqtincha hukumat shakllantirilib, Knyaz Georgiy Lvov boshliq etib saylandi.

Ikkinchisi: Petrograd ishchilar va askarlar soveti.

1917-yil 3-mart Muvaqqat hukumat o'zini vaqtincha hukumat deb e'lon qildi. Uning asosiy maqsadi Ta'sis Majlisi saylovlarini o'tkazib saylab qo'yilgan yangi hukumatga hokimiyatni topshirish edi. Muvaqqat hukumat demokratik islohatlar o'tkazdi. O'z o'rnida bu islohotlar jiddiy demokratik qadamlar bo'lib, bular: so'z, matbuot, yig'ilish erkinligi, din erkinligi, milliy masalalar, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari va eng asosiysi o'lim jazosini vaqtinchalik bekor qilish, siyosiy mahbuslarni ozod qilish, (Lenin va Stalin surgunda edilar) politsiyaning militsiyaga o'zgartirilishi, podshoh davridagi hukumat vakillari ishdan olinib, o'rniga yangi rahbarlar qo'yilishidan iborat edi. Ma'lumotlarda bu qonunlar 10 ta bo'lgani keltiriladi. Yana boshqa ma'lumotlarda keltirilishicha, Muvaqqat hukumat bu qonunlarni joriy qilinishiga qaramay eski hukumat siyosatini ma'qullab turgani ham keltirib o'tilgan.

Buning ustiga vaqtincha hukumat darhol saylov o'tkazishga va'da berilgan bo'lib, bu masala yuzasidan maxsus kengash ham tuzilgandi. Saylov dastlab sentabr oyiga rejalashtirilgan edi. Lekin bir necha oyga surib yuborildi. Bunga sabab, ushbu saylov, Rossiya tarixida birinchi umumiy saylov bo'lganligidan ayrim texnik kamchiliklar yuzaga chiqqandi. Xususan, mamlakat bo'ylab saylov ro'yxatini tuzish, saylov uchastkalarini tashkil qilish juda katta ish hisoblanardi.

Shuningdek, saylovlarni kechiktirishdan manfaatdor kuchlar ham bor bo'lib, ularning ko'pchiligini kadetlar tashkil qilardi. O'z o'rnida, Eserchilar Ta'sis Majlisiga saylovlarni sentabr oxiri yoki oktabr boshida bo'lishini talab qilib, inqilobiy qonun loyhasini Ta'sis majlisiga kiritmoqchi bo'lishdi. Lekin iyul inqirozdan keyin kadetlar saylovni 8 hafta ortga surishga muvaffaq bo'ldi. Bunga Iyul inqirozidan tashqari mamlakatda yana uchta katta siyosiy inqirozlarning bo'lib o'tishi sabab bo'ldi. Rossiya hukumatidagi bu inqilob va uning natijalari, umumiy holatda mustamlaka davlatlarga ta'sirini ko'rsatdi.

Turkistonda murakkab jarayonlar avj oldi. Xususan, mustamlaka tizimi, mahalliy aholi va rus mustamlakachilari o'rtasidagi ziddiyat, din va millat masalalari ustma-ust tushdi. Turkistonda fevral inqilobiga qadar ham siyosiy va iqtisodiy ahvol notinch bo'lib, uning ildizlari birinchi jahon urushi hamda 1916-yildagi xalq qo'zg'olonlariga borib taqalardi, fevral inqilobi esa shundoq ham og'ir vaziyatni yanada chuqurlashtirib yubordi [1.B1-7]. 1914-yil birinchi jahon urushi boshlanganda, Turkiston aholisi harbiy xizmatga olinmas edi va bu Rossiya imperiyasini musulmon xalqlarga qurol berishdan qo'rqishi bilan izohlanar edi. Lekin urush davom etar ekan Rossiya armiyasi katta yo'qotishlarga duch keldi. 1915-yildagi og'ir mag'lubiyat ("Buyuk chekinish") dan keyin armiyaga ishchi kuchi kerak bo'ldi. Xususan, okop qazish, yo'llar qurish, temir yo'l tortish uchun Turkiston xalqi safarbar qilindi. Bu holatlar jadal tus olib 1916-yil 25-iyulda Podsho Nikolay II maxsus farmon chiqardi. Bu farmonga ko'ra, Turkiston va boshqa musulmon hududlardan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar majburiy ravishda front orqasidagi og'ir ishlarga, mardirkorlikka yuborilishi kerak edi. Bu farmondan xalq noroziligi boshlandi. Norzilik kayfiyatlari qo'zg'olonlarga aylanib, shahar va vodiylarda o'z aksini ko'rsata boshladi. Dastlab Xo'jand, so'ng Jizzax, undan keyin Farg'ona vodiylarga o'tdi. Ayniqsa Yettisuv mintaqasida bir necha oy qo'zg'olon davom etib, ancha qon to'kildi. Buning natijasida Rossiya imperiyasi qo'zg'olonni shavqatsiz bostirib, armiya qismlarini yubordi. Yuz minglab kishilar halok bo'ldi, yoki qochishga majbur bo'ldi, qirg'iz va qozoqlar esa Xitoyga qochdi. Bundan mustamlaka boshqaruv zaiflashdi. Amoldorlar va politsiya va mahalliy ma'muriyat avvalgi kuchga qayta olmadi. Ya'ni 1916-yil boshqaruvni zaiflashtirib qo'ydi. Ammo tizimga to'liq barham berish Fevral inqilobi bo'ldi. 1917-yil fevral oyi oxirida Turkistonga, Podsho ag'darilgani xabari yetib keldi. Shuni aytish kerak-ki, Turkiston aholisi zo'r hayajon bilan kutib olishdi.

Samarqandda nashr qilingan Hurriyat gazetasidagi maqolalar ham bunga misol bo'ladi.

Ko'pgina shahar va qishloqlarda tartibsiz ravishda miting va norozilik yig'ilishlar boshlandi. Shahar ko'chalari bayroqlar bilan bezatilgan, Toshkentda ko'p ming kishilik namoyishlar "Ozodlik uyi" va Shayhontohur maydonida bo'lib o'tdi. Partiyalar, siyosiy guruhlar inqilobdan so'ng ko'zga ko'rinishni boshladi. Dastlab ular hokimyatni egallashni maqsad qilishmadi. Balki ular hokimyatni qayta qurishda sivilzatsiyaviy usullarni taklif qilishdi.

Bu tashkilotlar bir-biri bilan g'oyaviy qarama qarshiliklar bor edi. Biroq yangilanishdan manfaatdor barcha siyosiy guruh va musulmon qatlami chor mustamlaka ma'muriyatini tugatishga birgalikda kirishdilar. Bunga sabab, Turkiston qo'mitasi hamma berilgan va'dalar ustidan chiqqa olmadi. Yer masalasi, oziq-ovqat inqirozi va urush davridagi kamchiliklar bartaraf etilmadi. Milliy tenglik, 8 soatlik ish kuni joriy qilish kabi talablar ham bajarilmadi. Natijada ikki hokimiyatchilik yuzaga kelgan bo'lib, ikkalasi ham asosan rus aholisini manfaatlarini ifodalardi. Mart oyining dastlab kunlarida yevropaliklar siyosiy harakatlar markazida turdi. Umumiy olganda fevral inqilobidan keyin hokimiyat shaklan yangilanib borayotgan hisoblanib, buning natijasi o'laroq mart oyining oxirlarida Toshkent ishchi va soldat deputalari soveti tuzildi. O'zining tarkibiga ko'ra Toshkent soveti asosan rus ishchilar va garnizon askarlardan iborat bo'lgan. Ko'p jihatdan ularning manfaatlari mahalliy turkistonliklar mos kelavermas edi.

Toshkent shahar Dumasi binosida turli ijtimoiy tashkilotlari vakillari yig'ilib, Toshkent jamoat tashkilotlari ijroiyy qo'mitasini (Toshshaharijrokom) saylash haqida qaror qabul qilindi. [2. B-34] Biroq saylov natijalari mahalliy aholida noroziliklarni keltirib chiqardi. Toshkentning yevropaliklar qismidan saylangan delegatlar kiritilgan edi. Mahalliy musulmon aholini siyosiy maydonda chetda qoldirilmoqda edi. Shu paytda musulmon ziyoli qatlam, siyosiy maydonga chiqdi. Ketma-ket saylovlar va guruhdagi ayrim sabab kelishmovchiliklar natijasida aholi o'rtasida norozilik harakatlari kuchayib bordi. 13-mart sanasida yana umum xalq namoyishi bo'lib o'tdi.

Ertalab soat 10 ga kelib Jo'me masjidi ichkari va tashqarisi odamlar bilan to'lib toshgan, taxminan 40 ming kishilik namoyish boshlandi. Bunday tinch namoyish Turkistonda birinchi bor bo'lishi edi. Toshshaharijrokom a'zolariga Shayhantohurdan Ubaydulla Xo'jayev, Ko'kchadan Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sebzordan Zaynutdinxo'ja Sarimsoqxo'jayev va Beshog'ochdan Abdusafixon G'anixon o'g'lini sayladi. Mazkur majlisda yana bir qator eski hukumatning amaldagi qonunlarga qarshi muhim qarorlar chiqarilib, ularni joriy qilishga nomzodlar saylandi.

14-mart kuni kech soat 8 da Toshkent jamoatchilik tashkilotlari ijroiyy qo'mitasiga delegatlar saylanib, eski shaharning barcha qismlardan kengaytirilgan vakolatli organ ta'sis etildi.

Tatar va qozoq qismi vakillari hisobiga a'zolar soni 61 kishidan iborat bo'ldi. Bu organ Sho'roi Islomiya nomini oldi. Ular Turkistonga Avtonomiya berilishini, maktablar yetarlicha ochilishini, mahalliy xalqni siyosatda qatnashishini talab qilishdi. Ubaydulla Xo'jayev, Munavvar qori, Abdulla Avloniy kabi atoqli ziyoli jadidchlar boshqaruvga jalb etildi.

Turkiston milliy harakatining tarmoqlanishi juda jadal tus oldi. Shoroi Islomiya qatorida bir necha siyosiy tashkilotlar bor edi. Bu tashkilotlarda asosiy o'rin tutgan, Turon va Ittifoqi Muslimin tashkilotlari edi. Bunda yosh taraqqiyparvarlar, talabalar jamiyati, musulmon ziyolilar ittifoqi aprel oyida tuzilgan edi. Yana shu yilning yozida Sho'roi Ulamo (Ulamolar kengashi) tashkil etilib, uni diniy olim va ulamo muftiylar boshqardi. Lekin ular jadidlarga qaraganda islomiy qadriyatlarni ko'proq qadrlashardi. Ularning pozitsiyasi ba'zilar jadidlarga yaqin, ba'zilar esa butunlay farq qilardi. [3.B-1] Yuqorida keltirilgan siyosiy partiyalar Shoroi Islomiya bilan birgalikda bir butun bo'lgan deya olsak bo'ladi. Lekin Ulamo kengashi ajralib chiqishi, fikr qarashlar tog'ri kelmagani siyosiy qarashlarga anchagina salbiy ta'sir korsatgani ko'p manbalarda keltiladi. Ziyoli qatlam bo'lgan jadidlar, qadimchilar bilan bir qatorda faoliy yurita olishmagan.

Hattoki shahar hududlarga qadimchilarsiz borib yig'ilish xalqqa siyosiy holatni tushuntirish ishlari olib borilganligi keltiriladi. Bulardan tashqari umumiy masalalarni hal qilish uchun butun Turkiston musulmonlar qurultoyini o'tkazdi. 1917-yilning o'zida to'rtta quroiltoy bo'lib o'tdi. Quriltoylarda asosiy masalalar ko'rib chiqilar, ya'ni tashkilotlar hisobotlari, kelajak siyosiy tuzulish muhokamalari o'rin tutib, avtonomiya yoki federal kabi masalalar, jadidlar va ulomolar o'rtasidagi zid qarashlar, va boshqa partiya faoliyatlari atroflicha o'rganib chiqilar edi. [4.B-24] Mart-oktabr oylari orasida bu tashkilotlar va quriltoy yig'ilishlarda, avtonomiya siyosiy kun tartib mavzusiga aylandi. Bu avtonomiya, Rossiya ichida mahalliy o'z-o'zini boshqarish sifatida tasavvur qilindi.

XULOSA

Demak Turkistonda avtonomiya g'oyalari ilgari surilar ekan, fevral inqilobi davlatchilikni tiklash uchun kuchli turtki berdi. Lekin xulosa o'rnida aytish kerak-ki, siyosiy natija kutilganidek bo'lmadi. Bunga bir qancha sabablar bo'lib, bulardan siyosiy maydonning ikkiga bo'linishi edi.

Turkiston qo'mitasi va Toshkent soveti bir-biri bilan raqobat qilgan, mahalliy musulmonlar esa teng o'yinchi sifatida kirisha olmagan. Musulmon siyosiy tashkilotlarning plyuralizmi, ya'ni ulamo va jadidlar siyosiy jihatdan faol bo'ldilar. Lekin ularning qadriyatlarini va taktikasi doim mos kelmadi. Bundan tashqari qurultoylarda ko'proq siyosiy qonuniylik va hokimiyat dasturi ishladi.

Lekin real ijro esa boshqalar qo'lida qoldi. Umumiy ma'noda bu pozitsiyani amaliy hokimiyatga aylantirish juda qiyin edi. Ma'muriyat, moliya, qurolli kuchlar o'z kuchini ko'rsatdi.

Kelajakda esa bu harakatlar Turkistonni katta inqiloblar domida qolishini, Qo'qonda tuzilajak Turkiston muxtoriyatini qonga botishini tarix bizga ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova S. 1916-yil qo'zg'olonining tarixiyliqi-Toshkent, // Kelajak bunyodkorlari B 1-7. № 4 – 2022.
2. Azamxo'jayev S. Turkiston Muxtoryati milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - Toshkent Manaviyat, 2000. B 176.
3. Agzamxo'jayev S. Shoroi Ulamo jamiyatining tashkil topishi va ijtimoiy-siyosiy faoliyati // Oriento Moderno- B 1-12. №1-2007.
4. Raxmatov M.G. Butun Turkiston musulmonlar qurultoyi (1917-yil) // O'tmishga nazar, B 67. №6 – 2021.
5. Diloram Alimova. Jadidchilik fenomeni-Toshkent: Akademnashr, 2022, B 274.
6. O'zbekiston yangi tarixi 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq. 2000, B 688.
7. Zikrullayev M.F Toshkent "Ulamo" jamiyati (1917-1918) // Current Reserch Journal of History- B 20-28. №3-2024.